

PEDAGOG FAOLIYATINING TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDAGI O'ZIGA XOS TALABLARI

**ADPI 1-bosqich o'zbek tili
yo'nalishi Zuxriddinova Xilola**

Annotatsiya : Ushbu maqolada pedagogning ta'lim tizimidagi faoliyatini o'ziga xos talablari majburiyatlari va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatining turli metodlari haqida, shuningdek pedagogik jarayonda tarbiyaning qanday xolda ta'lim bilan hamohang xolda berish yo'llari to'g'risida ham fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar : pedagogika, ta'lim, tarbiya, pedagogik metod, pedagog muloqoti, pedagog xususiyatlari, pedagogik jarayon.

Pedagogik psixologiya - faqatgina ta'lim berib qo'ymay, tarbiyani ham o'zgaradi. Kasblar ichida "O'qituvchilik" kasbi eng murakkab kasb hisoblanadi. Yosh avlodni kelajakka tayyorlash uning zimmasida bo'ladi.

Pedagogika - (yunoncha paidagogike) tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi. Dunyoni o'qituvchisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hattoki bironbir kasbni egallagan insonni ham ustozidir. O'qituvchi fanlarni o'qitish bilan cheklanib qolmaydi. U har bir o'quvchini hayot yo'lini to'g'ri topishga o'rgatadi. Yaxshilikka, ezgulikka yetaklaydi. Shuning uchun ham donishmandlarimiz : "Ustoz otangday ulug'" - deb bejizga aytishmagan.

Ta'lim - o'quvchilarga Nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayondir. Ta'lim jarayonining ta'lim berish funksiyasi - o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Har bir o'qituvchining bilim berish usuli har xil. Ba'zilar qattiqqo'llik bilan bilim bersa, boshqalari qiziqarli o'yinlar tarzida bolani darsga qiziqtirib o'tadi.

Tarbiya - aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'sir jarayoni: shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy, madaniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli amaliy pedagogik jarayon. Yuqorida aytib o'tilganidek o'qituvchi faqatgina bilim berib qo'ymay tarbiya ham beradi. Odamlar jamiyatda yashashi uchun, o'zgaralar bilan muloqot qilishi uchun ham tarbiya juda katta rol o'ynaydi.

O'qituvchining, umuman olganda pedagogik jamoaning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni bilish va o'rganish kaliti va o'quv faoliyatining ijodiy xarakteri, o'quvchi shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, ta'lim-tarbiyada maqbul bo'lgan emotsional muhitni ta'minlovchi. jumladan, ruhiy psixologik to'siqlarning paydo bo'lishini oldini oladigan, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga solib boshqarishni ta'minlaydigan va o'quv tarbiyaviy jarayonda o'qituvchining o'z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir. Agar insonning ilmi to'la bo'lsa-yu, tarbiyasi bo'lmasa, oilada, do'stlar davrasida aslo hurmat topmaydi. (1)

"Metod" so'zi yunoncha tarjimasi " tadqiqot", "usul", "maqsadga erishish yo'li" kabi ma'nolarni anglatadi. Pedagogik metoddan foydalanishning asosiy maqsadi sinaluvchida vujudga kelayotgan ichki, jamiki obrazlarning rivojlanishi faoliyat va bilish jarayonlarining o'zgarishiga tajriba natijasiga suyanib ta'rif va tavsif berishdir. Kuzatish, test kabi bir qancha metodlar bor. Kuzatish metodi - 2 xil bo'ladi ichki va tashqi metod.

Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar kerak bo'ladi:

1. Kuzatish maqsadi, vazifasi
2. Kuzatilayotgan obyekt tanlanadi

3. Tadqiqot o’tkazish vaqti rejaqilinadi.

"Test" metodi- shaxsning aqliy qobiliyatini, irodaviy sifatlarini va boshqa xususiyatlarini tekshirishda yordam beradi. Test odamni qaysi kasbni tanlashini, oldindan qanday maqsadlari borligini va shuni aytib o’tish kerakki, xulq-atvorini ham ochib beradi.

Pedagog muloqoti deganda, pedagog va o’quvchilar o’rtasida o’zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayirboshlashdan, o’quv tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish va o’zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat tizim, usul va malakalar tushuniladi. Ayrim o’qituvchilar bor o’quvchilarga haddan ortiq qo’ppollik qiladi. Albatta bu narsa bolaga yoqmaydi. Hatto o’sha o’qituvchining fanini yomon ko’rishgachaboradi. Boshqalari juda muloyim bo’lishadi. Bu odat o’quvchini layoqatsizlikka olib kelishi mumkin. Pedagogda birmuncha tartiblilik va mehribonlik ham bo’lishi kerak. Ana o’shanda uning o’quvchilari darslarni yaxshi o’zlashtiradi va fanga bo’lgan qiziqishi ham ortadi. Har bir pedagogning o’ziga xos xususiyatlari bo’ladi. Endigina ishga kirgan yosh pedagogni ham, ko’p yillik ish tajribasiga ega bo’lgan o’qituvchilarni ham ko’rishimiz mumkin. Yosh o’qituvchilar dastlabki paytlarida o’quvchilarga ortiqcha mehribonlik munosabatda bo’ladi. Hozirgi kunda tajribali pedagoglar anchagina vazminlik va qattiqqo’llik bilan ajraladi. Adabiyot o’qituvchisi o’quvchilar bilan muloyim, samimiy muloqot qiladi. Ular o’quvchilar bilan qiynalmasdan emotsional aloqalar o’rnatadi. Tabiatshunoslik o’qituvchilarining boshqalardan ajralib turadigan xislati shundaki, ular o’quvchilar bilan qat’iy, ishchan munosabatda bo’ladi. Ularning munosabati rasmiy bo’ladi. Pedagogik jarayon - bu o’qituvchilar va o’quvchilarning rivojlanish va ta’lim muammolarini hal qilishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan o’zaro ta’siridir. "Pedagogik jarayon " tushunchasining sinonimi sifatida "Ta’lim jarayoni" atamasi ham qo’llanadi. Pedagogik jarayonning ajralmas xususiyati o’qituvchi va o’quvchilar orasidagi aloqa, odob-axloqi va faoliyatining o’zaro o’zgarishi natijasidir. Pedagogik jarayonning asosiy maqsadi o’qituvchi va talabalar intilayotgan aniq bir natijasini aks ettirishi kerak. Ushbu jarayon barcha ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog’langan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki>
2. <http://reja.tdpu.uz>
3. <https://arxiv.uz>
4. kompy.info
5. N Tojiboyeva "Muloqot psixologiyasi". O’quv qo’llanma T 2024